ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA PASSIV SHAKLDAGI GRAMMATIK STRUKTURALAR
GRAMMATICAL STRUCTURES OF PASSIVE FORMS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

O‘zMU talabasi **Tilovova Dinora**
Ilmiy rahbar: o‘qit. **Achilova Nilufar**

Annotatsiya: Ushbu maqola, nemis tilidagi passiv grammatik strukturalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek tilidagi passiv konstruksiyalar bilan solishtirilib, o‘zaro farqlar va o‘xshashliklar ko‘rsatildi. Maqolada nemis tilidagi passiv shakllarning semantik-sintaktik, pragmatik xususiyatlari hamda o‘zbek tilidagi passivning grammatik strukturasi tahlil qilindi. Tilshunoslikda fe’lning nisbat kategoriyasiga oid masalalar hamda passiv konstruksiyalarni tushunishdagi noaniqliklar ko‘rib chiqild. Tadqiqotda, passiv konstruksiyaning nemis va o‘zbek tillaridagi qurilishi va qo‘llanilishi haqida keng tushuncha hosil qilingan. Maqola, tilshunoslar va lingvistika sohasidagi ilmiy tadqiqotchilar uchun foydali material bo‘lishi mumkin.

Annotation: This article is dedicated to analyzing passive grammatical structures in the German language, comparing them with passive constructions in the Uzbek language to highlight both similarities and differences. The semantic-syntactic and pragmatic characteristics of passive forms in the German language are examined, as well as the grammatical structure of the passive in the Uzbek language. Issues related to the grammatical category of the subject-object relationship and the ambiguity in understanding passive constructions are also discussed. The study provides a comprehensive understanding of how passive constructions are structured and used in both the German and Uzbek languages. This article can serve as a valuable resource for linguists and researchers in the field of linguistics.

Kalit so‘zlar: Nemis tili, o‘zbek tili, passiv konstruksiya, fe’lning nisbat kategoriyasi, grammatik struktura, semantik xususiyatlar, pragmatik xususiyatlar, majhul nisbat, o‘timsiz fe’l.

Keywords: German language, uzbek language, passive construction, verb relation category, grammatical structur, syntactic features, semantic features, pragmatic features, passive voice, intransitive verb.

Tilshunoslikka oid bir qancha masalalar nafaqat nemis tilida, balki umumiy tilshunoslikda ham hozirgacha ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lib qolmoqda. Shunday bahsli-muammoli masalalardan biri fe'lning nisbat kategoriyasidir. Ma'lumki, nisbat kategoriyasi kishining amaliy va bilish faoliyatida markaziy o‘rinni egallaydigan subyekt-obyekt munosabatlarini ifodalovchi muhim lingvistik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu subyekt-obyekt munosabatlarini aniq belgilash borasida ko‘plab izlanishlar amalga oshirildi. Shunday bo‘lsa-da, nisbat nazariyasining asosiy muammolari bo‘yicha bahslar kamaygani yo‘q. Bahslarga sabab bo‘layotgan masalalar qatoriga, jumladan, quyidagilar kiradi: nisbatning formal strukturasining uning mazmun strukturasiga zid qo‘yilishi; nisbat zidlanishida ishtirok etadigan grammatik tarkibi masalasi (ayrim olimlar ushbu zidlanishda faqat aktiv va passiv ishtirok etadi deyishsa, boshqalariga bunaqa holatda stativ hamda refleksiv (o‘zi nisbatini) ham kiritishadi); ko‘plab noaniqliklar nisbatning fe'l o‘timliligi/o‘timsizligi, o‘lik va shaxssiz holatlari bilan o‘zaro munosabatida mavjud.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Nemis tilida passiv konstruksiyalardan foydalanishning semantik-sintaktik va pragmatik xususiyatlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlandi, shuningdek, passivni ko‘p darajali shakllanishi sifatida ko‘rib chiqishga harakat qilindi. Passiv grammatik toifalarga tegishli bo‘lganligi sababli, ko‘p hollarda faoliyatning xususiyatlari alohida jumla doirasida ochib berilmaydi, shuningdek, tadqiqot sohasi chegaralarini kengaytirish va tadqiqotni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Majhullik muammosiga bag‘ishlangan lingvistik adabiyotlarda majhul nisbat o‘timli fe’llarga xos ekanligi qayd etilgan. Biroq majhul birikmalar yasashda foydalanuvchi fe’llarning semantik xususiyatlariga e’tibor berilmaydi. Farazlarga ko‘ra, passivlanishga qodir bo‘lgan fe’llarning semantikasi matn va nutqda passivning ishlash xususiyatlarini oldindan belgilab beradi: harakat semantikasiga ega bo‘lgan fe’llar gapning ma’nosini o‘zgartirib, matn bog‘lanish hosil qilish uchun ishlatiladi. Harakatning jarayonga aylanishi aktantlar holatining o‘zgarishiga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, matnning uyg‘unligini yaratadigan mavzu-rematik artikulyatsiyaning o‘zgarishiga olib keladi. Nutq harakati semantikasiga ega fe’llar nutqiy vazifada qo‘llaniladi. Nutq harakati fe’llari bo‘lgan passiv daliliy imkoniyatlarga ega va shuning uchun diskursiv funksiyalarni bajaradi.

H. Glinz aytganidek "Bizda uchta hodisa turi mavjud, shuning uchun ham nemis tilida shubhasiz yana bir nisbat turi bor. Bu holat nisbatidir. Holat nisbati majhul nisbatdan farq qilib, jarayonni emas balki holatni ifodalaydi"[1].

O.I. Moskalskayaning qarashlarida yuqoridagi mulohazalarga o‘xshash jihatlar ko‘p uchraydi[2]. Buni nisbatning ta’rifi va turi haqidagi fikridan ham bilib olish mumkin. Bertelsman ham fe’llarning aktiv va passiv turlari haqida fikr bildirib, u an’anaviy terminlar, ya’ni aktivni aniq (Tätigkeitsform) va passivni majhul (Leideform) nisbat deb qo‘llashdan qochadi, chunki har ikkala termin ham o‘zining noaniqligi tufayli ularni qo‘llamaydi va fikr isboti sifatida quyidagi misollarni keltiradi[3]:

1) *Ich fahre das Auto in die Garage*. (Handlung).
2) *Das Wasser fließt. Der Mond scheint*. (Vorgang/Zustand)
3) *Er wird gelobt/beschenkt*. (positives Erlebnis)
4) *Die ganze Nacht wurde getanzt*. (aktives Verhalten)

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda u ham passiv konstruksiya aktiv konstruksiyaning teskari shakli degan fikrga qarshi chiqadi. Bertelsman ishining oxirida aktiv va passivning qo‘llanish darajasini quyidagicha keltirgan: fe’llarning 93% aktivda va faqat 7% passivda (5% werden+passiv va 2% sein+passiv) qo‘llanadi.

Albatta nemis, o‘zbek va rus tillarida nisbat kategoriyasi o‘timlilik /o‘timsizlik kategoriyasi bilan bevosita bog‘liqdir. N. Elmurodovning “O‘timli va o‘timsiz fe’llarning nisbatga munosabati” nomli maqolasida nisbatning o‘timli va o‘timsiz fe’llarga bo‘lgan munosabatiga bir qadar to‘xtalib to‘xtalib o‘tilgan. Uning fikricha hozirga qadar keng tarqalgan fikrga ko‘ra, faqat ish-harakatni bildirgan fe’llargina passiv yasay oladi degan fikrga qarshi chiqqan holda, holat yoki jarayonni bildirgan ko‘pgina fe’llar ham passiv shakliga ega. Bunday fe’llar sirasiga, jumladan, nemis tilida *benötigen, brauchen, empfinden, hören, bewundern, lieben, bewohnen, vergessen, verlieren, verschlafen* kiradi.

[1] Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. Sankt-Peterburg: Lan, 1996. S. 544

[2] Moskalskaja O. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. M.: Hochschule, 1971. S. 154-156

[3] Bertelsman. Grammatik der deutschen Sprache. München: Lexikon GmbH, 1999. S.702

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Shularni inobatga olgan holda, passivlashish qoidasini quyidagicha berish mumkin: subyekt-obyekt munosabatlarini ifodalaydigan fe'llar passiv yasay oladi. Bunda subyekt ega pozitsiyasini egallaydi[4]. Tilshunos S.A. Shubikning fikriga ko'ra, "Tilshunoslikda aktiv va passiv oppozitsiyasi faqat o'timli fe'llarga xos degan tushuncha mavjud". Odatda tushum kelishigida turgan vositasiz to'ldiruvchini boshqaradigan fe'llar o'timli fe'llar deyiladi. O'timli fe'llarga ushbu kelishikni talab qilmaydigan o'timsiz fe'llar qarshi turadi. O'timsiz fe'llar o'z navbatida ikkiga bo'linadi: birinchi turga jo'nalish yoki qaratqich kelishigidagi ko'makchili yoki ko'makchisiz vositali to'ldiruvchilarni boshqaradigan fe'llar kiradi. Barcha vositasiz yoki vositali to'ldiruvchilarni boshqaradigan fe'llar ikki tomonli fe'llar deyiladi. Tilshunos S.A.Shubikning ta'kidiga ko'ra bunday xususiyatga ega bo'lmagan fe'llar bir tomonli fe'llar deyiladi[5].

Ikkala konstruksiya, ya'ni aktiv va passiv konstruksiyalar, bir xil vaziyatni ifodalasa ham, ularni tasavvur qilishda ma'lum farqlar mavjud. Aktiv konstruksiya subyektning obyektga qarshi yo'naltirilgan ish yoki harakatini tasvirlaydi, ya'ni bunda subyekt asosiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs yoki obyekt sifatida ko'rsatiladi. Masalan, "der Schuler liest das Buch" jumlasida o'quvchi sub'yekt bo'lib, kitob esa obyekt sifatida ko'rinadi va o'quvchi o'z faoliyati orqali kitobni o'qish jarayonini boshqaradi.

Boshqa tomondan, passiv konstruksiyada vaziyat, aksincha, obyektning subyekt tomonidan amalga oshirilgan harakat yoki ta'sir ostida bo'lishini ifodalaydi. Passiv konstruksiya subyektni ikkilamchi holga keltiradi, ya'ni harakat yoki ish obyektning ta'siri ostida amalga oshadi. Masalan, "das Buch wird gelesen" jumlasida kitob obyekt sifatida faoliyatga tushadi, lekin o'qish harakati uni yo'naltirayotgan shaxsning emas, balki umumiy jarayon sifatida ko'rsatiladi.

Nemis tilida ikki xil nisbat mavjud: aniq nisbat va majhul nisbat. Aniq nisbatda ish-harakat ega tomonidan bajarilib, to'ldiruvchiga qaratiladi. Aniq nisbatda istalgan o'timli yoki o'timsiz fe'llar qo'llanilishi mumkin:

Sarvinoz sagt ihre Meinung.

Der Leiter fragt die Schuler.

Majhul nisbatda esa, ish – harakat to'ldiruvchi tomonidan bajarilib, gapning egasiga qaratilgan bo'ladi. Majhul nisbat faqat o'timli fe'llarga xosdir:

Das Handy wird renoviert.

Das Referat wird von mir geschrieben.

Nemis tilidagi fe'lning passivga oid bo'lgan hamma zamon formalarining Futur II formasidan boshqa hamma zamon formalari o'zbek tilidagi majhullik nisbati bilan mos tushadi. Lekin ularning grammatik formalari va ifoda etish yo'llari bir - biridan keskin farq qiladi. "Nemis tilining passiv zamon formalarida qo'llanadigan werden yordamchi fe'li hamma zamon formalarida o'zgarib turadi" *wird gemacht, wurde gemacht, ist gemacht worden, war gemacht worden, wird gemacht werden*.

Zamon ham asosan shu yordamchi fe'l formasi bilan belgilanadi. Mustaqil fe'lning sifatdosh II formasi o'zgarmay qolaveradi. O'zbek tilida majhullik nisbatida harakat to'ldiruvchi anglatgan predmet tomonidan bajarilib, egaga o'tadi yoki o'z bajaruvchisi mavhum bo'ladi. O'zbek tilida majhullik nisbati yasovchi affiks –(i)l, -(i)n hamma zamon formalarida o'zgarmaydi.

---

[4] Элмуродов Н. Ўтимли ва ўтимсиз феълларнинг нисбатга муносабати// Тил системаси ва ҳозирги замон лингводидактикаси. Самарқанд: СамДЧТИ

[5] Шубик С. А. Категория залога и поле залоговости в немецком языке. Л.: Наука, 1989. С. 53-58

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Nemis va o‘zbek tillaridagi passiv shakllarining grammatik strukturalarini o‘rganish, har bir tilda bu shakllar qanday qurilishi va qo‘llanilishi haqida tushuncha hosil qilishni talab qiladi. Nemis tilida passiv shakl "werden" yordamchi fe’li va o‘tgan zamonning partizipi yordamida hosil qilinadi, bu esa amal yoki uning natijasiga e’tibor qaratishga imkon beradi, ko‘pincha amalni bajaruvchi sub’ektni tilga olmaydi. O‘zbek tilida ham, turk tiliga o‘xshab, passiv shakllar mavjud, lekin ularning tuzilishi va qo‘llanilishi, savodlilik darajasi va boshqa omillarga qarab farq qilishi mumkin.

Nemis tilida passiv konstruksiyasi ikki turga bo‘linadi:

1. Ikki bo‘lakli passiv;
2. Uch bo‘lakli passiv.

Eng ko‘p qo‘llanadigan ikki bo‘lakli passiv ikki bosh bo‘lakdan: ega va kesimdan tashkil topadi. Passivning bu turida ish-harakatning bajaruvchisi ko‘rsatilmagan bo‘ladi, masalan, *Das Diktat wurde geschrieben. Der Plan ist erfüllt worden.*

Uch bo‘lakli passiv uch bo‘lakdan tashkil topgan bo‘ladi: ega, kesim, predlogli to‘ldiruvchi (ish-harakatni bajaruvchidan). Predlogli to‘ldiruvchi *von* predlogi va Dativ kelishigida kelgan ot (olmosh)dan yoki *durch* predlogi va Akkusativ kelishigida turgan otdan tashkil topadi. Ish-harakat jonli predmet tomonidan bajarilsa, von, jonsiz yoki mavhum predmetlar orqali amalga oshsa, durch predlogi qo‘llanadi:

- *Der Brief wurde von dem Lehrer geschrieben.*
- *Der Junge wurde in der Nacht durch einen Telefonanruf geweckt.*

Aniq nisbatdagi gaplarni majhul nisbatga aylantirganda aniq nisbatning vositasiz to‘ldiruvchisi majhul nisbatning egasi bo‘lib keladi, egasi esa majhul nisbatning vositali to‘ldiruvchisi bo‘ladi. Yoki, aksincha, majhul nisbatdagi gaplarni aniq nisbatga aylantirganda majhul nisbatning vositali to‘ldiruvchisi aniq nisbatning egasi bo‘ladi. Shu boisdan ham majhul nisbat faqat o‘timli fe’llardan yasaladi, chunki o‘timli fe’llar o‘zidan keyin vositasiz (Akkuzativ-Objekt) to‘ldiruvchi kelishini talab etadi[6].

Ikki bo‘lakli passiv konstruksiyasida harakat obyekti bilan harakat o‘rtasidagi aloqa (bog‘lanish) ifoda etiladi. Passivning bunday konstruksiyasida ish-harakatning ijrosi ko‘rsatilmagan bo‘ladi: *Eine Anzahl von Häusern wurde zerstört*. Bu gapda Eine Anzahl von Häusern harakat obyekti hisoblanib, gapning bir bo‘lagi bo‘lsa, wurde zerstört harakatni ifoda etib, gapning ikkinchi bo‘lagi sanaladi. Shuning uchun bunday konstruksiya ikki bo‘lakli konstruksiya deyiladi. Demak, nemis tilida ikki bo‘lakli passiv quyidagi hollarda qo‘llanadi:

1) ***Man - Aktiv***: *Die Bibliothek wird um 8 Uhr geschlossen*.

Man schliesst die Bibliothek um 8 Uhr. Bulardan birinchi gap majhul nisbatda, ikkinchi gap esa aniq nisbatda ifoda etilgan. Gapning bunday strukturasi bir-biriga o‘xshaydi. Majhul nisbatda ifodalangan gapda ish-harakat ijrosi umuman noma’lum emas. Aniq nisbatda ifoda etilgan gapda ish-harakat ijrosi unchalik aniq bo‘lmasa-da, lekin u haqdagi umumlashgan ma’no saqlanib turadi.

2) ***Verb + Relfexivpronomen sich***: *Die Uhr wurde gefunden. Die Uhr fand sich.* Bu gap strukturasida ish-harakat ijrosi noma’lum bo‘lib, ish-harakat usiz bajariladi.

3) ***lassen + sich + infinitiv***: *Das Fenster kann geschlossen werden. Das Fenster lässt sich schliessen*. Bunday gap strukturasi ega jonsiz predmet bilan ifoda etilganda qo‘llanadi. Ega jonli predmet bilan

[6] Саидов С., Зикриллаев Г. Немис тили грамматикаси. Т. 1973, В.216

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

ifoda etilganda ma'no o'zgaradi: *die Mutter kann getragen werden (sie ist nicht schwer) - die Mutter lässt sich tragen.*

4) sein + zu + infinitiv: *Die Hausaufgabe kann ohne Wörterbuch übersetzt werden - Die Hausaufgabe ist ohne Wörterbuch zu übersetzen*. Bunday strukturadagi gap majhul nisbat ma'nosini ifoda etishdan tashqari, mumkinlik yoki zaruriyatning modal ma'nosini ifoda etadi.

5) -bar, -lich suffiksli fe'ldan yasalgan sifatlar: *Deine Kontrollarbeit kann nicht gelesen werden. - Deine Kontrollarbeit ist unleserlich. Diese Weintrauben können gegessen werden. - Diese Weintrauben sind essbar.* Nemis tilida –bar va -lich suffikslariga ega ko'p sifatlar passiv ma'noni ifoda etish xususiyati va imkoniyatining modal ma'nosini anglatish xususiyatiga ega: *konjugierbar, deklinierbar, austauschbar, tragbar; beweglich, ertraglich, verkauflich*[7].

Nemis tilidagi shu ikki bo'lakli konstruksiya o'zbek tilidagi majhul nisbat bilan ifoda etiladi: *Eine Anzahl von Häusern wurde zerstört. - Ma'lum miqdordagi uylar buzildi*. Demak, uch bo'lakli passivda ham harakat ijrosi, ham harakat obyekti ifoda etilib, uning oldidan von predlogi ishlatiladi. Die neuen Häuser wurden von den Arbeitern gebaut gapida wurden gebaut harakatning bir tomondan die neuen Häuser subyekti bilan, ikkinchi tomondan esa von den Arbeitern obyekti - ijrochisi bilan bo'lgan aloqa ham ifoda etilmoqda.

Demak, nemis tilida uch bo'lakli (dreigliedrige) passivda ish-harakatni amalga oshiruvchi shaxs ifodalangan bo'lib, uning oldida ***von*** va ***durch*** predloglari qo'shiladi. Von predlogi quyidagi hollarda ishlatiladi:

- ✓ shaxs ma'nosi ifoda etilganda: Die Studenten werden von dem Lehrer genau beobachtet. Ich werde von meinem Freund durch einen Brief verständigt.
- ✓ hayvonlar ma'nosi anglatilganda: Milch werde von der Katze getrunken.
- ✓ his-hayajon, ichki sezgi ma'nosi ifodalanganda: Sie werde von einer tiefen Unruhe ergriffen.
- ✓ tabiat kuchlari anglatilganda: Die Nacht werde vom Mond hell beleuchtet.

Durch predlogi to'ldiruvchi oldida qo'llanib, ish-harakatning bajarilish sababini ifodalaydi va quyidagi holatlarda qo'llanadi:

- shaxs ma'nosini anglatganda: Er wurde durch den Präsidenten ausgezeichnet.
- hayvonlar ma'nosi anglatilganda: Er wurde durch einen Hund aus seinem Grubeln gerissen.
- Jonsiz predmet ifodalanganda: Die Stadt wurde durch ein Erdbeben fast vollig zerstört. Die Fabrik wurde durch einen Brand vernichtet[8].

O'zbek tilida majhul nisbat shaklidagi fe'lda harakat bajaruvchisi subyekt (ega) emas, obyekt (to`ldiruvchi) sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo`ladi. Masalan: *Ot-aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi* gapida „olib kirildi" harakatning bajaruvchi subyekti noma'lum, ot-aravalar so`zi ega vazifasida kelsada, obyekt vazifasini bajargan. Kesimi majhullik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan gap qurilishi tilshunoslikda passiv konstruksiya deb yuritiladi.

Majhullik nisbati quyidagi qo`shimchalar bilan yasaladi:
a) fe'l negiziga unlidan so`ng *–l,* undoshdan so`ng *–il* affiksini qo`shish bilan: *yasa-l(-di), ata-l(-di), yut-il(-di), sot-il(-di)* kabi;

[7] Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. М.: Наука, 1973. С. 367

[8] Schendels J.I. Passive und statische Opposition. Moskva, 1970, S. 131

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

b) fe’l negiziga unlidan so`ng *–n*, undoshdan so`ng *–in* affiksini qo`shish bilan: *bastala-n(-di), ol-in(-di)* kabi.

Majhullik nisbatdagi fe’lni hosil qilishda *–l (-il)* affiksi ko`proq qo`llaniladi. Ba’zan ayni bir fe’l negizidan *–l (-il), -n (-in)* affikslari bilan ham o`zlik, ham majhullik nisbati yasalishi mumkin. Bunday bir xil shaklda kelgan bir xil fe’l negizining o`zlik yoki majhullik nisbatda ekanligi matndan aniqlaniladi. Masalan: *Madina darsga tayyorlandi. Operatsiyaga meditsina uskunalari tayyorlandi.*

Yuqoridagi masalalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, nemis tili tizimida fe'lning uchta turi — aktiv, passiv va stativ shakllari bor. Ta'kidlash joizki, barcha nisbat turlari til tizimida mustaqil ravishda mavjud bo‘lib, ular obyektiv munosabatlardan kelib chiqqan va ular aslo bir-birining hosilasi emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. М.: Наука, 1973. С. 367
2. Bertelsman. Grammatik der deutschen Sprache. München: Lexikon GmbH, 1999. S.702
3. Duden, Grammatik der deutschen Sprache, Duden Verlag, 2020
4. Элмуродов Н. Ўтимли ва ўтимсиз феълларнинг нисбатга муносабати// Тил системаси ва ҳозирги замон лингводидактикаси. Самарқанд: СамДЧТИ
5. Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. Sankt-Peterburg: Lan, 1996. S. 544
6. Moskalskaja O. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. M.: Hochschule, 1971. S. 154-156
7. Саидов С., Зикриллаев Г. Немис тили грамматикаси. Т. 1973, B.216
8. Schendels J.I. Passive und statische Opposition. Moskva, 1970, S. 131
9. Шубик С. А. Категория залога и поле залоговости в немецком языке. Л.: Наука, 1989. С. 53-58